O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIYLASHTIRISHNING TASHKILIY-HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	312
Turopov Yorqin Sharapovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA PORTFELINI "YASHILLASHTIRISH" VA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	315
Soliyev Muhammad Umar Baxromjon o'g'li	
HEMIS BILAN INTEGRATSIYALASHGAN INKLYUZIV RAQAMLI TA'LIM PLATFORMASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI INVESTITSIYA QAYTIMI (ROI) ASOSIDA BAHOLASH.....	319
Xolmonov Shodiyor Karshiboyevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING XALQARO TAJIRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO'NALISHLAR.....	321
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ В ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ.....	325
Туйчиев Ш. Ш.	
YO'LOVCHI TASHISH SAMARADORLIGINING INSTITUTSIONAL DETERMINANTLARI.....	329
Kurambayev Alisher Saburbayevich	
НОВЫЙ ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН «О РЫНКЕ КАПИТАЛА»: ЧТО МЕНЯЕТСЯ ДЛЯ ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	333
Калбаева Карина Ахметуллаевна	



HUDUDIIY KLASSTER MODELI ASOSIDA MAKTAB MENEJMENTINI MAQBULLASHTIRISH: TAYANCH-RESURS MAKTAB MEXANIZMI VA SAMARADORLIK MEZONLARI.....	336
Rajapova Guldona Usman qizi	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQAMLI YETUKLIGINI BAHOLASH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	339
Kungratov Ilmurod Qo'zibay o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENT STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	342
Pulatova Dildora Abdushukurovna	
INVESTITSION FAOLLIKNING IQTISODIY MAZMUNIGA DOIR NAZARIY QARASHLAR.....	347
Asatova Shahzodaxon Zabixillo qizi	
REZERVUARDAGI BENZINNING PORTLASH UCHUN XAVFLI KONSENTRATSIYALARINI ANIQLASH	350
Xakimov Abror Maksimovich	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	355
G'aniyev Elyor Sobirjonovich	
NAQD PUL MUOMALASINI QISQARTIRISH VA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI KAMAYTIRISH: JANUBIY KOREYA TAJRIBASI VA MAKROFISKAL XULOSALAR.....	361
Shonazarov Ashurali Akabayevich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	365
Xusanova Malohat Mingnorovna	
IJTIMOIIY SOHADA INNOVASION RIVOJLANISHNI STRATEGIK BOSHQARISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	368
Xolmuratov Jahongir Salimbek o'g'li	
KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MONITORING QILISH USULLARI	370
Asadov Qodirjon Nasirovich	



KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MONITORING QILISH USULLARI

Asadov Qodirjon Nasirovich

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o'rinbosari

ORCID: 0009-0006-7572-4793

Annotatsiya. Tijorat banklarida kredit risklarini baholash va monitoring qilishning zamonaviy usullari hamda ularning banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda kredit riskining mohiyati, uning yuzaga kelish omillari hamda kredit ajratishdan oldingi va kredit ajratilgandan keyingi baholash jarayonlari yoritilgan. Xususan, qarz oluvchilarning kreditga layoqatligini baholash, moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili, ballik baholash tizimi, kredit reytingi, garov ta'minoti, defolt ehtimoli (PD), defolt holatidagi zarar darajasi (LGD) va defolt vaqtidagi kredit majburiyati (EAD) kabi ko'rsatkichlarning kredit riskini aniqlashdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, kredit riskini monitoring qilishda muammoli kreditlar ulushi, to'lovlarning kechikishi, qarzдорlik yukining o'zgarishi, garov qiymati, kredit portfeli konsentratsiyasi va defolt ehtimoli kabi indikatorlardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit riski, kredit riskini baholash, kredit monitoringi, kredit portfeli, kreditga layoqatlilik, defolt ehtimoli, PD, LGD, EAD, kutilayotgan kredit zarari, stress-test, erta ogohlantirish tizimi, muammoli kreditlar, kredit portfeli konsentratsiyasi, tijorat banklari.

Abstract. This thesis examines modern methods for assessing and monitoring credit risks in commercial banks and their importance in ensuring banks' financial stability. The study explores the nature of credit risk, the factors contributing to its emergence, and the assessment processes carried out before and after loan disbursement. In particular, it analyzes the role of such indicators as borrowers' creditworthiness assessment, financial ratio analysis, credit scoring systems, credit ratings, collateral, probability of default (PD), loss given default (LGD), and exposure at default (EAD) in identifying credit risk. The study also considers the use of indicators such as the share of non-performing loans, payment delays, changes in debt burden, collateral value, credit portfolio concentration, and probability of default in credit risk monitoring.

Keywords: credit risk, credit risk assessment, credit monitoring, credit portfolio, creditworthiness, probability of default, PD, LGD, EAD, expected credit loss, stress testing, early warning system, non-performing loans, credit portfolio concentration, commercial banks.

Аннотация. В данном тезисе исследуются современные методы оценки и мониторинга кредитных рисков в коммерческих банках, а также их значение для обеспечения финансовой устойчивости банков. Рассматриваются сущность кредитного риска, факторы его возникновения, а также процессы оценки, осуществляемые до и после выдачи кредита. В частности, анализируется роль таких показателей, как оценка кредитоспособности заемщиков, анализ финансовых коэффициентов, система кредитного скоринга, кредитный рейтинг, залоговое обеспечение, вероятность дефолта (PD), уровень потерь при дефолте (LGD) и величина кредитных обязательств на момент дефолта (EAD), в определении кредитного риска. Кроме того, рассматриваются вопросы использования таких индикаторов, как доля проблемных кредитов, просрочка платежей, изменение долговой нагрузки, стоимость залога, концентрация кредитного портфеля и вероятность дефолта, при мониторинге кредитного риска.

Ключевые слова: кредитный риск, оценка кредитного риска, кредитный мониторинг, кредитный портфель, кредитоспособность, вероятность дефолта, PD, LGD, EAD, ожидаемые кредитные убытки, стресс-тестирование, система раннего предупреждения, проблемные кредиты, концентрация кредитного портфеля, коммерческие банки.

KIRISH

Bank tizimining asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri vaqtincha bo'sh pul mablag'larini iqtisodiyotning moliyalashtirishga ehtiyoj sezayotgan subyektlariga qayta taqsimlashdan iborat. Ushbu jarayonda kredit operatsiyalari bank daromadlarining muhim manbalaridan biri bo'lishi bilan birga, bank balansidagi asosiy moliyaviy xatar manbalaridan birini ham shakllantiradi. Kredit berish jarayonida bank qarz oluvchining kelajakdagi moliyaviy holatini mutlaq aniqlik bilan oldindan bilish imkoniyatiga ega emas. Natijada berilgan



kreditning qaytarilmasligi yoki to'lovlarning kechikishi ehtimoli paydo bo'ladi. Mazkur ehtimol kredit riski sifatida namoyon bo'ladi.

Bank faoliyatida kredit riskini boshqarish faqat kredit berishdan oldingi tekshiruv bilan cheklanmasligi lozim. Zamonaviy bank amaliyotida kredit riski kredit ajratilishidan oldin aniqlanadi va kreditning butun amal qilish davri davomida kuzatib boriladi. Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining kredit riskini boshqarish tamoyillarida kredit riskini boshqarishning muhim yo'nalishlari sifatida tegishli kredit muhiti, puxta kredit ajratish jarayoni, kreditlarni o'lchash va monitoring qilish hamda ichki nazorat tizimini shakllantirish ko'rsatilgan [4].

O'zbekiston bank tizimida mazkur masalaning dolzarbligi kredit portfelining yuqori sur'atlarda o'sishi bilan izohlanadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshida tijorat banklarining jami kredit portfeli 533,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 604,0 trln so'mga yetgan. Demak, bir yil davomida kredit portfeli 70,9 trln so'mga, ya'ni qariyb 13,3 foizga oshgan [5].

1-jadval.

O'zbekiston bank tizimining ayrim asosiy ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkich	2025-yil 1-yanvar	2026-yil 1-yanvar	O'zgarish
Jami aktivlar, trln so'm	769,3	924,8	+20,2%
Jami kredit portfeli, trln so'm	533,1	604,0	+13,3%
Jami depozitlar, trln so'm	308,7	417,3	+35,2%
Jami kapital, trln so'm	114,8	135,3	+17,9%
Kredit portfelida xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi	43%	39%	-4 foiz bandi

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, kredit portfeli o'sishda davom etmoqda. Bu holat iqtisodiyotda bank kreditlariga bo'lgan talab yuqoriligini ko'rsatadi. Biroq kredit hajmining ortishi banklarning kredit riskini boshqarish tizimiga bo'lgan talabni ham kuchaytiradi.

Kredit riski deganda qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasligi natijasida kreditning zarar ko'rish ehtimoli tushuniladi. Mazkur riskning asosiy manbai qarz oluvchining moliyaviy holatining yomonlashuvi bo'lsa-da, kredit riskiga inflyatsiya, foiz stavkalari, valyuta kurslari, garov qiymatining o'zgarishi, iqtisodiyot tarmoqlaridagi holat va kredit portfelining haddan tashqari bir sohaga jamlanishi ham ta'sir ko'rsatadi. Kredit riskini baholashni kredit ajratishdan oldingi va kredit ajratilgandan keyingi baholashga ajratish mumkin. Birinchi holatda bank qarz oluvchining kreditga layoqatligini aniqlaydi. Ikkinchi holatda esa kreditning qaytarilish jarayoni va qarz oluvchining moliyaviy holati muntazam ravishda kuzatib boriladi. Kredit ajratishdan oldingi baholash jarayonida qarz oluvchining daromadlari, pul oqimlari, qarzдорlik darajasi, moliyaviy barqarorligi, kredit tarixi, garov ta'minoti va biznes faoliyatining barqarorligi o'rganiladi.

Korporativ mijozlar uchun qarzning o'z mablag'lariga nisbati, foiz xarajatlarini qoplash koeffitsiyenti, joriy likvidlik koeffitsiyenti va rentabellik kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Jismoniy shaxslarning kreditga layoqatligini aniqlashda esa daromadlarning barqarorligi, mavjud qarzдорlik, kredit tarixi va qarz to'lovlarning daromadga nisbati muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit riskini miqdoriy baholashda uchta asosiy ko'rsatkichdan foydalanish keng tarqalgan. Bular defolt ehtimoli (Probability of Default — PD), defolt holatidagi zarar darajasi (Loss Given Default — LGD) va defolt vaqtidagi kredit majburiyati (Exposure at Default — EAD) hisoblanadi.

Defolt ehtimoli qarz oluvchining ma'lum davr mobaynida o'z majburiyatlarini bajarmay qolish ehtimolini bildiradi. Defolt holatidagi zarar darajasi kredit qaytarilmagan taqdirda bank o'z mablag'larining qanchasini yo'qotishi mumkinligini ko'rsatadi. Defolt vaqtidagi kredit majburiyati esa qarz oluvchining defolt holatiga kelgan paytda bank oldidagi umumiy kredit majburiyatini ifodalaydi.

Ushbu uch ko'rsatkich asosida kutilayotgan kredit zarari quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$KKZ = DE \times DZ \times DKM$$

Bu yerda:

KKZ — kutilayotgan kredit zarari;

DE — defolt ehtimoli;

DZ — defolt holatidagi zarar darajasi;

DKM — defolt vaqtidagi kredit majburiyati.

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [5].



Masalan, bankning ma'lum kredit guruhidagi kredit majburiyati 100 mlrd so'm, defolt ehtimoli 5 foiz, defolt holatidagi zarar darajasi 40 foiz bo'lsa, kutilayotgan kredit zarari 2 mlrd so'mni tashkil qiladi.

Bu yondashuvning afzalligi shundaki, bank kredit zararlarini faqat ular yuzaga kelgandan keyin emas, balki kelajakdagi ehtimoliy zararlarini hisobga olgan holda oldindan baholashi mumkin. Kredit riskini baholashning muhim usullaridan biri kreditga layoqatlilikni ballik baholash tizimi hisoblanadi. Mazkur usulda qarz oluvchining moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlari asosida unga ma'lum ball beriladi. Ball qancha yuqori bo'lsa, qarz oluvchining kreditni qaytarish imkoniyati shunchalik yuqori deb baholanadi.

Ballik baholash tizimining asosiy afzalligi kredit qarorlarini standartlashtirish va inson omilidan kelib chiqadigan subyektivlikni kamaytirishdir. Ayniqsa, jismoniy shaxslarga beriladigan ko'plab kichik kreditlarda ushbu usul katta ahamiyatga ega.

Kredit riskini baholashning yana bir usuli moliyaviy koeffitsiyentlar tahlilidir. Korxonalar uchun qarzдорlik darajasi, foydalilik, likvidlik, pul oqimlari va foiz xarajatlarini qoplash qobiliyati tahlil qilinadi. Masalan, foiz xarajatlarini qoplash koeffitsiyentining uzoq vaqt davomida 1 dan past bo'lishi korxonaning kredit majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga qo'shimcha e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatishi mumkin.

Kredit reytingi ham kredit riskini baholashning muhim vositalaridan biridir. Banklar qarz oluvchilarni risk darajasiga ko'ra turli guruhlariga ajratishi mumkin. Risk darajasi yuqori bo'lgan mijozlar uchun kredit shartlari va foiz stavkalari risk darajasini hisobga olgan holda belgilanadi. Kredit riskini kamaytirishda garov ta'minoti ham muhim o'rin tutadi. Biroq garovning mavjudligi kredit riskini butunlay yo'q qilmaydi. Chunki garov qiymati kamayishi, uni realizatsiya qilish qiyinlashishi yoki huquqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun garov qiymatini kredit ajratilgan vaqtda emas, kredit amal qilish davrida ham qayta baholab borish zarur.

Kredit riskini monitoring qilishning asosiy maqsadi kredit portfelida muammoli holatlar yuzaga kelishidan oldin ularning dastlabki belgilarini aniqlashdan iborat. Bazel qo'mitasi ham kreditlarni boshqarishda kreditlarni ma'muriy nazorat qilish, o'lchash va muntazam monitoring qilishni alohida muhim yo'nalish sifatida belgilaydi [2].

Monitoring jarayonida kredit to'lovlarining kechikishi, qarz oluvchining daromadlari, hisobvaraqlaridagi pul oqimlari, yangi qarzlarning paydo bo'lishi, garov qiymati va faoliyat yuritayotgan tarmoqdagi o'zgarishlar kuzatilishi kerak.

2-jadval.

Kredit riskini monitoring qilishning asosiy ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkich	Mazmuni	Riskning kuchayish belgisi
Muammoli kreditlar ulushi	Muammoli kreditlarning jami kreditlarga nisbati	Ko'rsatkichning muntazam oshishi
To'lov kechikishi	Kredit to'lovlarining belgilangan muddatdan kechikishi	Kechikish davrining uzayishi
Qarz to'lovining daromadga nisbati	Kredit to'lovlarining qarz oluvchi daromadiga nisbati	Qarzдорlik yukining ortishi
Kreditning garovga nisbati	Kredit summasining garov qiymatiga nisbati	Garov yetariligidan kamayishi
Foiz xarajatlarini qoplash koeffitsiyenti	Daromadning foiz xarajatlariga nisbati	Ko'rsatkichning pasayishi
Qarzning o'z mablag'lariga nisbati	Qarzning korxona kapitaliga nisbati	Haddan tashqari qarzдорlik
Defolt ehtimoli	Defolt yuz berish ehtimoli	Ehtimolning keskin oshishi
Kredit portfeli konsentratsiyasi	Kreditlarning ma'lum tarmoq yoki mijozlarga jamlanishi	Haddan tashqari jamlanish

Monitoring tizimida muammoli kreditlar ulushi muhim ko'rsatkich bo'lsa-da, uni yagona mezon sifatida ishlatish maqsadga muvofiq emas. Chunki ushbu ko'rsatkich muammo yuzaga kelganidan keyingi holatni aks ettiradi. Shu sababli banklar kelajakdagi riskni oldindan ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan ham foydalanishi kerak.

2 Bazel qo'mitasining kredit riskini boshqarish tamoyillari asosida muallif tomonidan tuzildi [2].



O'zbekiston bank tizimida kredit riskining muhim xususiyatlaridan biri davlat ulushidagi banklarning tizimdagi yuqori salmog'i hisoblanadi. Xalqaro valyuta jamg'armasining 2025-yildagi O'zbekiston moliya sektori bo'yicha baholash hisobotiga ko'ra, 2024-yilda davlat ulushidagi banklar mamlakat bank tizimi aktivlarining 65,5 foizini tashkil qilgan. Xususi mahalliy banklarning ulushi 23,5 foiz, xorijiy banklarning ulushi esa 11,1 foiz bo'lgan [1].

3-jadval.

2024-yilda O'zbekiston bank tizimining ayrim ko'rsatkichlari³

Ko'rsatkich	Jami tizim	Davlat ulushidagi banklar	Xususi mahalliy banklar	Xorijiy banklar
Bank aktivlaridagi ulushi	100,0%	65,5%	23,5%	11,1%
Kapital yetarliligi	17,4%	16,6%	18,5%	19,2%
Muammoli kreditlar ulushi	4,0%	3,9%	2,6%	7,5%
Standartga to'liq javob bermaydigan kreditlar ulushi	17,3%	21,5%	9,1%	5,6%
IFRS 9 bo'yicha 3-bosqich kreditlari	7,8%	8,1%	2,6%	15,2%
Kreditlarning imtiyozli shartlardagi ulushi	29,5%	38,4%	3,1%	20,2%

Jadvaldan ko'rinadiki, davlat ulushidagi banklarda muammoli kreditlarning ulushi 3,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, xususi mahalliy banklarda ushbu ko'rsatkich 2,6 foizga teng. Bundan tashqari, davlat ulushidagi banklarda standartga to'liq javob bermaydigan kreditlar ulushi 21,5 foizni tashkil etgan. Bu esa kredit portfeli sifatini faqat muammoli kreditlar orqali baholash yetarli emasligini ko'rsatadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan O'zbekiston bank tizimi bo'yicha o'tkazilgan tahlilda kreditlar sifatini baholash ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari qayd etilgan. Hisobotga ko'ra, 2023-yil oxirida nazorat maqsadlarida hisoblangan muammoli kreditlar ulushi 4,2 foiz bo'lgan bir paytda, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha uchinchi bosqich kreditlari 7,8 foizni tashkil qilgan [6].

Mazkur farq kredit riskini baholashda foydalaniladigan metodologiya ning naqadar muhimligini ko'rsatadi. Bank tomonidan kechiktirilgan to'lovlarga asoslangan ko'rsatkichlar bilan bir qatorda qo'shimcha risk indikatorlaridan foydalanish kredit sifatidagi o'zgarishlarni yanada erta aniqlash imkonini beradi.

Kredit riskini monitoring qilishning zamonaviy usullaridan biri stress-test hisoblanadi. Stress-test yordamida bankning iqtisodiy sharoit keskin yomonlashgan holatdagi moliyaviy barqarorligi baholanadi. Stress-test jarayonida iqtisodiy o'sishning pasayishi, inflyatsiya ning kuchayishi, foiz stavkalarining oshishi, milliy valyuta kursining o'zgarishi, ishsizlikning ortishi yoki ayrim iqtisodiyot tarmoqlarida daromadlarning kamayishi kabi holatlar modellashiriladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasining O'zbekiston bo'yicha baholashida barcha 36 ta bank uchun kapital yetarliligi va likvidlik bo'yicha stress-testlar amalga oshirilgani qayd etilgan. Kredit riskini baholashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan kredit riskining asosiy parametrlarini bog'lovchi modellar qo'llangan [1]. Bu yondashuv O'zbekiston bank tizimi uchun ayniqsa muhim, chunki kredit portfelining katta qismi korporativ mijozlarga va davlat dasturlari doirasidagi kreditlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, xorijiy valyutadagi kreditlar bo'yicha valyuta kursining o'zgarishi ham kredit riskini oshirishi mumkin. O'zbekiston bank tizimida kredit riskini boshqarish samaradorligini oshirish uchun qarz oluvchi, bank va butun moliya tizimi darajasidagi nazoratni birlashtirish maqsadga muvofiq.

Qarz oluvchi darajasida kreditga layoqatlilik, daromadlar, mavjud qarzдорlik, kredit tarixi va garov ta'minoti muntazam baholanishi lozim. Bank darajasida kredit portfelining tarmoqlar, hududlar, valyutalar va yirik qarz oluvchilar bo'yicha jamlanishi nazorat qilinishi kerak. Tizim darajasida esa kredit o'sishi, aholi qarzдорligi, inflyatsiya, foiz stavkalari va valyuta kursining o'zgarishi hisobga olinishi zarur.

Kredit riskini boshqarishning samarali mexanizmlaridan biri erta ogohlantirish tizimini joriy etish hisoblanadi. Bunday tizim kredit to'lovlarning kechikishi, qarz oluvchining daromadlari pasayishi, qarzдорlikning oshishi yoki garov qiymatining kamayishi kabi belgilarni avtomatik aniqlashi mumkin.

Shuningdek, banklar kredit riskini baholashda kutilayotgan kredit zararlarini hisoblashga asoslangan yondashuvni rivojlantirishlari zarur. Bunda kreditning faqat joriy holati emas, balki kelajakdagi iqtisodiy sharoitlar ham hisobga olinadi. Xalqaro valyuta jamg'armasi O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlarni aniqlash

3 Xalqaro valyuta jamg'armasi, O'zbekiston bo'yicha moliyaviy sektorni baholash hisoboti, 2025-yil [1].



mezonlari va aktivlarni tasniflash amaliyotini izchil takomillashtirib borish muhimligini qayd etgan [5]. Shu sababli bank nazoratida kredit riskining dastlabki belgilarini aniqlashga asoslangan yondashuvni kuchaytirish muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari kredit riskini baholash va monitoring qilish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim jarayonlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Kredit riskini faqat kredit ajratish vaqtida baholash yetarli emas. Kredit ajratilgandan keyingi monitoring, kredit portfeli sifatini baholash, erta ogohlantirish tizimi, stress-test va kutilayotgan kredit zararlarini hisoblash bank risklarini samarali boshqarishning asosiy elementlari hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimida kredit portfelining 2025-yil davomida 533,1 trln so'mdan 604,0 trln so'mgacha oshgani kredit riskini boshqarish tizimiga bo'lgan talabni yanada kuchaytiradi [5]. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushining pasayishi ijobiy tendensiya hisoblanadi. Xalqaro baholash natijalari esa kredit portfeli sifatini yanada kengroq ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston banklarida kredit riskini baholashda birgina muammoli kreditlar ulushiga tayanmasdan, qarz oluvchining moliyaviy holati, kreditga layoqatlilik darajasi, defolt ehtimoli, ehtimoliy zarar miqdori, kredit portfeli konsentratsiyasi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, kredit riskini samarali boshqarishning eng maqbul modeli qarz oluvchi, bank va makroiqtisodiy muhit darajasidagi monitoringni o'zaro bog'lashdan iborat. Bunday yondashuv banklarga kredit muammosi yuzaga kelganidan keyin choralar ko'rish emas, balki riskning dastlabki belgilarini oldindan aniqlash va tegishli choralarni o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment // IMF Country Report. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2025. — No. 25/145. — 45 p. — DOI: 10.5089/9798229015103.002. — URL: <https://www.imf.org/en/publications/cr/issues/2025/06/23/republic-of-uzbekistan-financial-sector-assessment-program-financial-system-stability-567987> (murojaat sanasi: 17.09.2026).
2. Basel Committee on Banking Supervision. Guidance on Credit Risk and Accounting for Expected Credit Losses. — Basel: Bank for International Settlements, 2015. — 36 p. — URL: <https://www.bis.org/publications/201512-guidelines-guidance-credit-risk-and-accounting-expected-credit-losses> (murojaat sanasi: 17.09.2026).
3. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. — Basel: Bank for International Settlements, 2025. — 19 p. — URL: <https://www.bis.org/publications/202504-guidelines-principles-management-credit-risk> (murojaat sanasi: 17.09.2026).
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Information on Main Indicators of Banking Sector [Elektron resurs]. — Toshkent, 2026. — 21-yanvar. — URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/3326277/> (murojaat sanasi: 17.09.2026).
5. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Detailed Assessment of Observance — Basel Core Principles for Effective Banking Supervision // IMF Country Report. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2025. — No. 25/227. — 328 p. — DOI: 10.5089/9798229019811.002. — URL: <https://www.imf.org/en/publications/cr/issues/2025/08/08/republic-of-uzbekistan-financial-sector-assessment-program-detailed-assessment-of-569475> (murojaat sanasi: 17.09.2026).
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Financial Stability Report for 2024 [Elektron resurs]. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025. — URL: <https://cbu.uz/en/financial-stability/report/> (murojaat sanasi: 17.09.2026).
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Indicators of Banking System [Elektron resurs]. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. — URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/> (murojaat sanasi: 17.09.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
